

TURKIY SIVILLIZATSIYANING YANGI DAVRI: UMUMIY TARAQQIYOTI VA FAROVONLIK SARI

¹Tojiboyev Maxmudjon Akbarjon o'g'li,

²Turdiyev Xumoyon Xurshid o'g'li

¹Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 1-bosqich talabasi maxmudjonoff@gmail.com,

²Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 1-bosqich talabasi xumoyunturdiyev97@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7322005>

Annotatsiya: Ushbu maqoladan Turkiy davlatlar tashkiloti tarixiy tuzilish ahamiyati hamda yangi sivilizatsiya davriga erishgani, shu bilan birgalikda 2022-yil 11-noyabr kuni Samarqand shahrida tashkil qilingan TDT Sammiti natijalari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Ashina, Turk xoqonligi, Naxchivan shartnomasi, B2B, G2B

Turkiy davlatlar tashkiloti kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas. U qadim hamdo'st va qardosh xalqlar birlashmasidir. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, milloddan avvalgi 6-asrda turkiy qabilalarning tashkil topishi yani, asl kelib chiqishi turkiy qavmdan bo'lgan davr, Ashina¹ davrida Turk xoqonligi² sifatida shakllangan. Qadimiy manbaalarda qayd etilishicha, ushbu qabila nomi 58 xil turli atamalar bilan tilga olingan bo'lib, milliy an'analarga sodiq, bir turdagi tilda muloqot qiluvchi yagona davlat bo'lib shakllangan. Keyinchalik bu xalqlar birlashuvining mustahkamligi buyuk ajdodlarimizning o'rni katta.

Ushbu davlatlar birlashishi qadimgi urf-odatlar, millatlararo totuvlik bilan o'zining qardoshlik aloqalari azaldan shakllanib kelgan. Garchi ular tur xil bayroq, hudud, tillar, pul birlik, turli qarashlar hamda madaniyatga ega bo'lsalarda, asli bir ulkan daraxt ildizidek jipslashgan elatdirlar. Shunday ekan, ularning qadim do'stlik, yaqin qo'shnichilik hamda uzoq qarindoshlik rishtalarini hech kim ayira olmagan kabi ulardagi taraqqiyotga bo'lgan yaqin hamkorlik rishtalarini mustahkamlashlariga qarshi bo'la ola olmaydilar.

Turkiy davlatlar tashkilotining xalqaro tashkilot sifatida shakllanish jarayoniga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1992-yilda Anqarada Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Turkiya va O'zbekiston prezidentlari o'rtasida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar rahbarlari sammitidan keyin prezidentlar tomonidan bunday saviyadagi uchrashuvlar o'tkazish amaliyoti maqullanib, buni keng qamrovda davom ettirish uchun 2009-yil 3-oktabrda "Naxchivan shartnomasi"³ imzolandi. Imzolangan shartnoma, eng avvalo, xalqlar o'rtasidagi tarixiy rishtalar, do'stlik va birodarlik qadriyatlarini mustahkamlash, istiqbolli loyihalarni tashkil qilish, umumiy til, madaniyat va an'analardan kelib chiqqan holda har tomonlama hamkorlikka kirish va bu munosabatlarni chuqurlashtirishga qaratilgani ko'rinib turadi. Hamkorlik turlari, tashkilotning maqsad va vazifalari, tarkibidagi kengash va qo'mitalar, imtiyozlar, budjet, xalqaro munosabatlar va nizolarni bartaraf etish to'g'risida ma'lumotlar ushbu shartnomaning ikkinchi moddasida to'liq bayon etilgan. "Naxchivan shartnomasi" tomonlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni va do'stlikni

mustahkamlash; tashqi siyosiy masalalar bo'yicha umumiy pozitsiyalarni ishlab chiqish; xalqaro terrorizm, separatizm, ekstremizm va transchegaraviy jinoyatlar bilan kurashish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish; umumiy manfaatdor bo'lgan barcha sohalarida samarali mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlik rivojlantirish; savdo va sarmoyalar uchun qulay sharoitlar yaratish; iqtisodiy har tomonlama va muvozanatli o'sishni, ijtimoiy va madaniy rivojlanishni maqsad qilish; ilm-fan, texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohalarida o'zaro aloqalarni kengaytirish; ommaviy axborot vositalari va boshqa aloqa vositalarining o'zaro ta'sirini rag'batlantirish; tegishli huquqiy ma'lumotlar almashinuviga ko'maklashish va huquqiy hamkorlikni rivojlantirish kabi maqsad va vazifalardan iborat. Shartnomaning nega aynan "Naxchivan shartnomasi" deb nomlanishiga to'xtaladigan bo'lsak, mazkur shartnoma ilk marotaba Ozarbayjon Respublikasining Naxchivan avtonom respublikasida o'tkazilgani bois, ushbu nom berilgan.

Darhaqiqat, kengashni tashkil etish g'oyasini birinchi bo'lib Qozog'iston Respublikasining birinchi prezidenti bo'lmish Nursulton Nazarboyev ilgari surgan. Avvallari "Turk tilli davlatlar tashkiloti hamkorlik kengashi" nomi bilan tashkil topgan bo'lsa, keyinchalik Istanbulda bo'lib o'tgan VIII Istanbul sammitida ushbu kengashning nomi "Turkiy davlatlar tashkiloti"ga o'zgartirilishi to'g'risida qaror imzolandi va Turkmaniston ham kuzatuvchi davlatlar safiga qo'shildi. Tashkilotning tarixiga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, 2012-yil kengashning bayrog'i qabul qilindi. 2018-yil 30-aprelga kelib esa O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga qo'shilishi e'lon qilindi va Bishkekda bo'lib o'tadigan sammitda ishtirok etdi. Rasmiy ravishda 2019-yil 12-sentyabr da a'zolikka ariza topshirdi. Hozirgi kunda ushbu tashkilotga 5 davlat, ya'ni Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va O'zbekiston a'zo, Vengriya va Turkmaniston esa kuzatuvchi davlatlar hisoblanadi.

Bugungi kunda ushbu tashkilotning a'zo va kuzatuvchi davlatlarining umumiy aholi soni qariyb 160 million kishini tashkil etib, 4 million 200 ming kvadrat kilometrlik geosiyosiy hududni qamrab olgan. Garchi O'zbekiston ushbu tashkilotga a'zo bo'lganiga oz fursat bo'lgan bo'lsa ham ushbu 3 yil mobaynida bo'lib o'tgan: 2019-yil Boku, 2020-yil onlayn va 2021-yilda Istanbulda bo'lgan sammitda davlatimiz rahbari faol qatnashib o'zlarining 35 dan ortiq amaliy tashabbuslarini ilgari surdilar va bugungi kunga qadar 20 dan ortiq tashabbuslar amalga oshirildi. 2021-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan Yosh tadbirkorlar forumini tashkil etish, transport va bojxona tartib-taomillarini raqamlashtirish bo'yicha loyihalarining amalga oshirilishi va "ePermit" pilot loyihasini sinovdan o'tkazish shular jumlasidandir.

Undan tashqari O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida yashil yo'lak ishga tushirilishi shuningdek O'zbekiston va Turkiya o'rtasida "raqamli tir" pilot loyihalarining ham yo'lga qo'yilishi yuqorida ko'rsatib o'tilgan fikrlarimizning yaqqol isbotidir.

2021- yil 12- noyabr kuni turkiy davlatlar tashkilotining Istanbuldagi 8-sammiti bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda investitsiya fondini tashkil etish va ushbu

fondning asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari, moliyaviy resurslari va uni tashkil etish hamda faoliyat yuritishi bilan bog'liq bir necha masalalar ko'rib chiqilgan edi.

Sammitda davlatimiz rahbari ushbu tashkilot haqida o'zining iliq fikrlarini bildirib shunday dedilar: "mustahkam tarixiy rishtalar, mushtarak til, madaniyat va ma'naviy qadriyatlar asosida shakillangan Turkiy davlat tashkiloti mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmiga aylanib borayapti". Sammitning yakunida tashkilot raisligi Ozarbayjonga o'tishi va Turkiy davlatlar tashkilotining birinchi sammiti 2022-yilda O'zbekistonda o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilindi.

11-noyabr kuni Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlarining "Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyoti va farovonlik sari" mavzusidagi yig'ilish bo'lib o'tdi.

Bu uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mezbonligida Turkiya yetakchisi Rejep Tayyip Erdog'an, Turkmaniston Milliy Kengashi Xalq Maslahati raisi Gurbanguli Berdimuhamedov, Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog'iston prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iziston prezidenti Sadir Japarov, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban uchrashuvda ko'p tomonlama savdo aloqalarini rivojlantirish bo'yicha keyingi qadamlarni, ya'ni Tashkilot doirasida o'zaro savdoni oshirish bo'yicha umumiy kompleks yondashuvlarni amalga oshirishni ko'rib chiqdilar.

Dastlab, sammit doirasida imzolanishi rejalashtirilgan "Savdoga ko'maklashish strategiyasi"ni amalga oshirish bo'yicha eng faol chora-tadbirlarni ko'rib chiqildi. Ishtirokchilar ushbu yo'nalishning ustuvorligini hisobga olgan holda transport yo'laklari, bojxona va chegara o'tkazish punktlari va logistika markazlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash bo'yicha a'zo davlatlar va Tashkilot kuzatuvchilarining yagona yondashuvi bo'yicha kelishuvlarga erishdilar. TDT doirasida transport-logistika jihatidan o'zaro bog'liqligini yanada kengaytirish va rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi. TDT iqtisodiyot va savdo vazirlarining Samarqandda bo'lib o'tgan uchrashuvida alohida tartibda iqtisodiyotga innovasiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qo'shma rejalar ko'rib chiqildi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlari, ijtimoiy soha va hududlarni rivojlantirishda raqamlashtirish va elektron hukumat tizimini joriy etish darajasini o'rganish va baholash bo'yicha kelishuvga erishildi, shuningdek, bu boradagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishning asosiy mezonlari va bosqichlar ko'rib chiqildi.

2022-yil Turkiy davlatlar tashkiloti Investitsiya jamg'armasi ta'sis etilgani barchamizga ma'lum. Samarqandda tashkil qilingan 2022-yil 10-noyabrdagi Turkiy davlatlar tashkiloti iqtisodiyot va savdo vazirlarining 11-yig'ilishida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida, Turkiy davlatlar tashkiloti Investitsiya jamg'armasini ta'sis etish bo'yicha Bitimni imzolanishini kelishib olindi. Samarqand shahrida o'tayotgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban uchrashuvida qo'shma investitsiya loyihalarini amalga

oshirish uchun moliyaviy mexanizmlar va qulay sharoitlar yaratish masalalari muhokama qilindi. O'zbekiston-Vengriya biznes forumi doirasida o'zbekistonlik tadbirkorlar Vengriya tashqi savdo va tashqi ishlar vaziri Peter Siyyarto boshchiligidagi 60 dan ortiq venger kompaniyalari vakillari bilan "B2B"⁴ va "G2B"⁵ shaklidagi muzokaralarni o'tkazishdi. Ikki tomonlama muzokaralar natijasida investitsiyaviy va savdo kelishuvlari imzolandi. Bu Yangi O'zbekistonimizning Turkiy mamlakatlari bilan Investisiya jamg'armasini ta'sis etilishi ko'p qirrali munosabatlarimizni rivojlanishida yangi zamin yaratadi. Sammit doirasida Qirg'izistonning Turkiyadagi elchisi Kubanichbek Omuraliyev Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi etib tayinlandi. Qayd etish kerakki, tashkilot bosh kotibliги uch yil muddatga saylanadi. Shu paytga qadar bu vazifani Bog'dod Amreyev bajarib kelayotgan edi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-noyabr kuni 10-11 noyabr kunlari bo'lib o'tadigan Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti tadbirlarida ishtirok etish uchun Samarqand shaxriga tashrif buyurdi. Sammit dastlabki kunidayoq Rejep Tayyip Erdog'an "Imom Al-Buxoriy ordeni"ning keyingi sovrindoriga aylandi. Eslatib o'taman ushbu mukofotning dastlabki sovrindori Saudiya Arabiston Podshoxi Salmon bin Abdulaziz Ol Saud bo'lgan edi. Shu bilan birgalikda navbatdagi 2023-yilgi sammitga Qozog'iston Respublikasi mezbonlik qilishiga kelishildi. Xulosa qilib aytganda, Turkiy davlatlar tashkiloti nafaqat investitsion, tashqi iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy balki ma'daniy-gumanitar va turizm aloqalari yaxshilanishiga ulkan tasir korsatdi, Turkiy mamlakat rahbarlarining turli sohalardagi taklif, tashabbus hamda loyihalari barcha mamlakatlari uchun umummanfaatli deya ayta olamiz.

References:

1. <https://kun.uz/uz/news/time/samarkandda-turkij-davlatlar-sammiti>
2. <https://president.uz/oz/lists/view/5689>
3. https://uz.wikidea.ru/wiki/Turkic_Council
4. <https://daryo.uz/2022/11/11/turkiy-davlatlar-tashkiloti-birinchi-sammiti-yakunida-samarqand-deklaratsiyasi-qabul-qilindi>
5. <https://mfa.uz/uz/>